

MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA HAMKORLIK ISHLARINI SHAKILLANTIRISH

Ismatova Zaynura

Nizomiy nomidagi TDPU

Maktabgacha ta'lim pedagogikasi

va psixologiyasi yo'nalish talabasi

Annotatsiya: Maktabgacha ta'lim tashkilotlari hamkorlik ishlarini amaliy ro'yobga chiqarishning muhim shartlaridan biri tayyorlov guruhlari tarbiyachilari hamda birinchi sinflar o'qituvchilari o'rtasidagi hamkorlikning o'rnatilish usullari bayyon etilgan.

Kalit so'zlar: hamkorlik, tashabuskorlik, o'zaro bog'liqlik, ijtimoiylashuv

Аннотация: Описаны одним из важных условий практической реализации совместной работы дошкольных образовательных организаций методы налаживания сотрудничества между воспитателями подготовительных групп и учителями первых классов.

Ключевые слова: сотрудничество, инициатива, взаимозависимость, социализация.

Abstract: One of the important conditions for the practical implementation of joint work of preschool educational organizations describes methods for establishing cooperation between teachers of preparatory groups and first-grade teachers.

Key words: cooperation, initiative, interdependence, socialization.

Maktabgacha yoshdagi bolaning maktab ta'limiga o'tishi hamisha uning hayoti, xulqi, qiziqishi va kundalik munosabatlarida anchagina jiddiy o'zgarishlarni yuzaga keltiradi. Shuning uchun maktabgacha yoshdagi bolani bog'chada yoki uydayoq maktab ta'limiga tayyorlash jarayonida uncha qiyin bo'lmagan bilim, tushuncha, ko'nikma va malakalar bilan tanishtirish kerak bo'ladi. Bunday tanishtirish, o'z navbatida bolada kechadigan moslashuv davri jiddiy qiyinchiliklarsiz o'tishga yordam beradi.

Bu aloqalarining ahamiyati ayniqsa keying yillarda maktabda bolalarni 6 yoshdan o'qitishga o'tilishi va ijtimoiy maktabgacha ta'lim sestemasining faol rivojlanish munosabati bilan ortdi. Hozirgi davrning o'ziga xos va xususiyati-bolalar bog'chasining maktab bilan ommaviy yaqinlashuvi – oshirish hamda bog'cha va maktablar pedagogik jamoalarning samarali hamkorliklarning qaror topishi uchun mavjud ijtimoiy asosiy vazifasi bolalarni maktabga tayyorliklarining yuqori darajasini ta'minlash bo'lib, bu keyinchalik maktabda muvaffaqiyatli o'qishga olib keladi. Maktabgacha ta'lim tashkiloti va maktab hamkorligining mazmuni hamda shakllari mana shu vazifalardan kelib chiqib aniqlanadi.

Bu o'qituvchi va tarbiyachilarga bolalarni tayyorlashning asosiy masalalarini chuqurroq farqlashlariga, bolani aqliy va ijtimoiy rivojlanishining psixologik tabiatini katta maktabgacha va kichik maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarning yosh xususiyatlarini tushinishda birlikka erishishlariga yordam beradi. Bu maqsasdda bolalar bog'chasi va maktab o'rtasidagi aloqalarning quyidagi aniq shakllari: o'qituvchi va tarbiyachilarning izchillik va bolalarni maktabga tayyorgarliklari muammolariga oid hamkorlikdagi pedagoglar sovedlarida qatnashishlari, dasturlarni "to'qnashtirish"ni muhokamasiga doir seminar-praktikumlarda qatnashish, shuningdek tarbiyachi va o'qituvchilar tomonidan tayyorlangan bolalarning yosh xususiyatlari, bolalarni bog'chadan maktabga o'tishlariga psixologik qiyinchiliklari, bolalarni

Index: [google scholar](#), [research gate](#), [research bib](#), [zenodo](#), [open aire](#).

https://scholar.google.com/scholar?hl=ru&as_sdt=0%2C5&q=wosjournals.com&btnG

<https://www.researchgate.net/search/publication?q=worldly%20knowledge>

<https://journalseeker.researchbib.com/view/issn/3060-4923>

maktab sharoitlariga muvaffaqiyatliroq moslashuvlariga yordam beruvchi omillar va shu kabilardagi leksiyalarni o'zaro almashishlari qaror toptiriladi.

Maktabgacha ta'lim tashkiloti va maktab aloqasining metodik jihati katta ahamiyatga ega bo'lib, tayyorlov guruhlar va maktabning 1-sinfida ta'lim –tarbiyaviy ishni amalga oshirish metod va shakllari bilan matematika, ona-tili, jismoniy tarbiya mehnat va ahloqiy tarbiyaga doir ishlash metod va shakllarida izchillikni qaror toptirishni nazarda tutadi. Bu jihat aloqaning maktabgacha ta'lim tashkiloti va maktab pedagoglarining dars hamda mashg'ulotlarga o'zaro kirib, so'ngra uni birgalikda muhokama qilishlari, ochiq dars va mashqlar ko'ruvini uyishtirish, ayrim metodikalarga doir birgalikdagi pedagoglar kengashlarini o'tkazish, tarbiyachilarning maktabdagi yoki maktabgacha ta'lim tashkilotida tarbiyalanuvchilarni 1-sinfda o'qitishning holati muommolariga bag'ishlangan o'zlarini qiziqtirgan seminarlarda ishtirok etishlari kabi shakllari orqali amalga oshiriladi. Bu uchrashuvlarning asosiy mazmuni ko'ndalang qo'yilgan masalalarni har tomonlama tahlil qilish, ularni hal etishdagi nuqsonlarni aniqlash, bolalar bog'chasi va maktabdagi ta'lim- tarbiyaviy ishni yanada takomillashtirishning aniq tavsiyalarini ishlab chiqishdan iborat.

Maktabgacha ta'lim tashkiloti va maktab o'rtasidagi aloqalarning amaliy jihati, birinchidan, o'qituvchilarning bo'lajak o'quvchilari bilan bolalar bog'chasida oldindan tanishishlarida, ikkinchidan tarbiyachilari o'zlarining sobiq tarbiyalanuvchilarini 1-sinfidagi o'qish jarayonida nazorat qilib turishlarida ifodalanadi. Mazkur mazmunni amalga oshirishni aniq shakli o'qituvchilarni o'zlarining bo'lajak o'quvchilari bilan tanishishlari maqsadida bolalar bog'chasining tayyorlov guruhlariga muntazam kelib turishlari mashg'ulot va mashg'ulotlardan tashqarida ularning faoliyat hamda xulq-atvorlarini kuzatishlari, tarbiyachilar bilan bo'lajak o'quvchilari haqida suhbatlashishlari, bolalarni maktabga kuzatishda tarbiyachilar tomonidan tuzilgan bolalar tavsiyanomada tanishish hisoblanadi. Tarbiyachi tavsiyanomada bolalar rivojlanishidagi ayrim o'ziga xos xususiyatlarini tariflaydi, bu o'qituvchi bolaning maktabda bo'ladigan kunidan boshlab unga to'g'ri pedagogik yondashuvni ishlab chiqishda yordam beradi. Tarbiyachi bolalarni maktabga chiqarganidan so'ng o'qituvchi bilan aloqada bo'lib turadi, bolalarning o'zlashtirish va ulgurishlari bilan suhbatlashadi, ayrim o'quvchilarning o'qishda orqada qolib ketish sabablarini o'qituvchi bilan muhokama qiladi. Bolalar maktabga kelgan dastlabki hafta va oylaridagi bunday nazorat katta ahamiyatga egadir, chunki u tarbiyachiga o'zini bolalarni maktabga tayyorlash ishining natijalarini yaqqol ko'rish, yutuq va kamchiliklarini aniqlash, uni yanada takomillashtirishga erishish imkonini beradi. Tarbiyachi va pedagoglarning hamkorlikdagi kengashlarida bolalarni maktabga tayyorlashning aniq najjalarini tahlil qilinadi, mazkur ishning kuchli va zaif tomonlarini aniqlanadi, kamchiliklari bartaraf etishning aniq yo'llari belgilanadi. Bolalar bog'chasi va maktab hamkorligining eng yaxshi tajribasi, odatda, o'qituvchilar va bolalar bog'chalari tarbiyachilarining hamkorlikdagi rayon va shahar konferensiyalarida yoritiladi va amalda keng joriy qilinadi. Bolalar bog'chasi va maktab aloqalarining haqiqatdan nafli bo'lishi uchun qator shartlarga: muayyan bolalar bog'chalarining muayyan maktablar bilan aloqalarining doimiyliigi, hamkorlikka oid ishdagi rejalilik va muntazamlilik masalalarining bir butun holda hal etilishiga rioya qilish muhimdir. Hamkorlik asosini birlikdagi ishning kengaytirilgan istiqbol rejasi tashkil etib unda asosiy vazifalar aniq shakllantirilgan, turli yo'nalishlarga doir mazmun aniqlangan, ishning shakli, muddatlari va bajarilish uchun ma'sullar belgilangan bo'ladi. Bolalar bog'chasi va maktab hamkorligi rejasining amaliy mazmuni va aniqligi uning muvaffaqiyatli amalga oshirishning garovidir.

Maktabgacha ta'lim tashkiloti va maktab o'rtasidagi ta'lim-tarbiyaviy ishdagi izchillikni ro'yobga chiqarishga doir har tomonlama mazmunli hamkorlikning o'rnatilishi, bolalarni

Index: [google scholar](#), [research gate](#), [research bib](#), [zenodo](#), [open aire](#).

https://scholar.google.com/scholar?hl=ru&as_sdt=0%2C5&q=wosjournals.com&btnG

<https://www.researchgate.net/search/publication?q=worldly%20knowledge>

<https://journalseeker.researchbib.com/view/issn/3060-4923>

maktabga tayyorlashda yuqori darajaga erishish va ularni maktabga muvaffaqiyatli o'qishlarining garovidir.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida maktabgacha ta'lim muassasasi bilan maktabning muayyan aloqa tajribalari vujudga kelgan. Ana shu aloqa asosan ikki yo'nalishda olib borilishini ajratib ko'rsatish mumkin: maktabgacha ta'lim tashkilotida bilan maktab pedagoglar mustahkam aloqasi hamda maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalar bilan birinchi sinf o'quvchilarining bevosita yaqinlashuvi.

Tarbiyachilar maktabning boshlang'ich sinflarida olib boriladigan ta'lim-tarbiyaviy ishlar mazmuni va o'ziga xos xususiyatlari bilan tanishadilar. Bunda ular bolalarning kamol topishi (rivojlanish) istiqbollarini aniqlaydilar va boshlang'ich maktab talab etadigan rivojlanish darajasini taminlaydilar. O'z navbatida o'qituvchilar, bolalardagi mavjud tarbiyalarga tayanish uchun, maktabgacha ta'lim muassasasi ta'lim- tarbiyaviy ishlarning mazmuni haqida tasavvur hosil qiladilar.

Ana shu ikki pedagogik jamoa o'rtasidagi aloqa shakllari juda xilma-xil:

I-sinf dasturi va "Ilk qadam"ni birgalikda muhokama qilish va o'rganish, ularning vorisligini chuqur anglash;

O'qituvchilarning tayyorlov guruhidagi ish shakllari, shuningdek katta maktabgacha tarbiya yoshining ohirga kelib bolalar yetaklab oladigan bilim va ko'nikmalar darajasi bilan tanishish; Shu maqsadda boshlang'ich sinf o'qituvchilarning maktabgacha ta'lim muassasasi mashg'ulotlarda yilning boshida, o'rtasida va oxirida ishtirok etishi bolalarni kuzatishi, ularning ayrimlari bilan alohida suhbatlashishi, tayyorlov guruhlaridagi ish natijalari yuzasidan bog'chada o'tkaziladigan pedagogik majlislarda qatnashishi maqsadga muvofiqdir;

Tarbiyachilarning o'zlari tarbiyalagan bolalarning yangi jamoada o'zini qanday qiyinchiliklarga namoyon qilish.

I- sinf dasturini qanday o'zlashtirishni, qanday qiyinchiliklarga duch kelishini aniqlash maqsadida maktabda o'qishning dastlabki oylarida ularni kuzatishi; birinchi sinf o'quvchilarining o'zlashtirishi yakunlariga bag'ishlangan pedagogika kengashlariga borishi;

Maktabgacha yoshidagi bolalarning maktabda o'qishga har tomonlama tayyorgarligi muommolariga oid konferensiyalar va pedagogika o'qishlari o'tkazish pedagogika va psixologiyaga doir yangi adabiyotlarni birgalikda muhokama qilish hamda maktabgacha tarbiya muassasalari va maktablarning bolalarni maktabda o'qishga birgalikda tayyorlash borasidagi ilg'or ish tajribalari bilan tanishish.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlari va maktab pedagoglarning ana shunday aloqalari natijasida ularning bir-birini tushinishga ega bo'ladi. Tarbiyachilar maktab talablarini, bolalarni o'qishga tayyorlash vazifalarini aniqroq anglab oladilar va ularni muvaffaqiyatli hal etadilar. O'qituvchilar, o'z navbatda, bolalar bog'chasining vazifalari, ish mazmuni va metodlarini chuqurroq tushinadilar, bu esa ularning tarbiyaviy ta'sir ko'rsatish metodlarida vorislik o'rnatilishiga yordam beradi.

Tayyorlov guruh bolalari bilan o'quvchilar o'rtasidagi aloqa butun o'quv yili mobaynida saqlanadi. Maktabgacha yoshidagi bolalarni maktab bilan o'quvchilarning o'quv va ijtimoiy hayoti bilan tanishtirish bog'cha tarbiyalanuvchilarining tegishli tasavvurlarni kengaytirish, ularda o'qishga bo'lgan istagini hosil qilish imkonini beradi. Bu ish shakllari rang-barang: maktabga ekskursiya, maktab muzeyi, kutubxona, ustaxonalarga borish, birgalikdagi mashg'ulotlar, ertaliklar, muzikali-badiiy kechalar o'tkazish, rasmlar hamda loy va plastilindan yasalgan mayda-chuyda narsalar ko'rgazmasini tashkil etish, bolalar bog'chasining sobiq tarbiyalanuvchilari bilan uchrashuv va suhbatlar uyushtirish va h. Bolalar MTT bilan maktab

o'rtasida aloqa va ijodiy hamkorlik o'rnatish bolalarni tizimli ravishda ta'lim olishga tayyorlov vazifalarini muvaffaqiyatli hal etishning zaruriy shartidir.

O'quv faoliyati, uy vazifalarni bajarish birinchi sinf o'quvchisining anchagina vaqtini oladi. U maktabga o'tlanadimi, darsga shug'ullanadimi yoki dastlabki jamoat topshiriqlarini bajaradimi – hamma vaqt mustaqillik ko'rsatishi kerak. Ertalab uning o'zi gimnastika qiladi, maktab uchun kerakli hamma narsani olishni unitmaydi. Mustaqil ish ko'nikmalari uning sinfdagi topshiriqlarini bajarishga yordam beradi, lekin u uy vazifalarini bajarishda ayniqsa zarur bo'ladi. Birinchi sinf o'quvchisi o'z ishini rejalashtirishda va nazorat qila bilishi, o'zining muvaffaqiyatlarini payqashi hamda kamchiliklarini ko'rish; ayrim vazifalarni hal etish uchun boshqa vazifalarni bajarishda hosil qilingan tajribalardan foydalanish kerak. Bu talablar maktabga vazifalarni belgilab beradi.

Yetti yoshga kelib bolalarda ayrim faoliyat turlarida mustaqillik ko'rsatish bo'yicha muayyan tajriba to'planadi. Masalan, o'z-o'ziga xizmat ko'rsatishda, tabiatda mehnat qilish borasida mustaqillik darajasi yetarlicha yuqori bo'ladi, ayni vaqtda shaxsning bu sifatini o'quv va o'yin faoliyatda rivojlantirish tarbiyachining doimiy e'tiborini talab etadi.

Bolalar o'zlarining, ish natijalarini tengdoshlarining ish natijalari bilan taqqoslab baholaydilar. Maktabgacha ta'lim tashkilotida bo'lishning ohirgi davrlariga kelib, ular bajarilgan topshiriqni tekshirish qilishda yetarli tajriba hosil qiladilar, bajarilgan ishga tanqidiy munosabatda bo'la oladilar.

Maktabgacha yoshidagi bolalarga mustaqillikni tarkib toptirish ishi bog'chadagi barcha faoliyat turlarida tarbiyachi rahbarligida amalga oshiriladi.

Bolalarni jismoniy tarbiyalash rejasining bajarilishi faqat uning umumiy vazifalarini hal etishnigina emas, ularda ertalabki gimnastika va jismoniy mashqlarni bajarishga ehtiyoj uyg'otishni, harakatlarni takomillashtirishga intilish, ularni o'z tengdoshlari bilan o'tkaza bilishni ham nazarda tutadi. Bolalarning salomatligini va jismoniy rivojlanishni yaxshilashga yordam beradigan, ularning tayanch – harakat apparatini rivojlantiradigan, organizmning chidamliligini tarbiyalaydigan harakat ritmining bajarilishini ta'minlash muhim ahamiyatga ega. Harakat aktivligining yetarlicha bo'lmasligi- gipodamiya-jismoniy tarbiya vazifalarini muvaffaqiyatli hal etishga xalaqit beradi, bolalarning aktivligi va ishonchlik qobiliyatini pasaytiradi.

Maktabga tayyorlov guruhi bolalari bilan olib boriladigan ishlarda jismoniy mashqlarning sport turlari alohida o'rin egallaydi. Chang'ida yurish, konki, chana velosiped uchish, etadi, yaxshigina jismoniy zo'riqish beradi.

Agar bola maktabgacha yoshda jismoniy mashqlarning yuqoridagi turlarini o'zlashtirib olsa, sport o'yinlari va o'yinbo'sh vaqtlarida ular bilan shug'ullanishi uchun zamin hisoblanadi.

Bu aqliy ishdan keyin dam olish va organizmni yanada sog'lomlashtirish vositasi bo'lib xizmat qiladi. Bolalarni jismoniy mashqlarning sport turlariga o'rgatish ishning alohida bo'lim bo'lib, buni amalga oshirish tarbiyachidan chang'idan yurish, kanki uchish va hokozalar texnikasini egallashni va albatta, bolalarni harakatlarning bu turlariga o'rgatish metodikasini bilishni talab etadi.

Shunday qilib, maktabgacha ta'lim tashkilotida va maktab o'rtasida ta'lim-tarbiyaviy ishdagi izchillikni ro'yobga chiqarishga doir har tomonlama mazmunli hamkorlikning o'rnatilishi, bolalarni maktabga tayyorlashda yuqori darajaga erishish va ularni maktabda muvaffaqiyatli o'qishlarining garovidir

Adabiyotlar ro'yxati

Index: [google scholar](#), [research gate](#), [research bib](#), [zenodo](#), [open aire](#).

https://scholar.google.com/scholar?hl=ru&as_sdt=0%2C5&q=wosjournals.com&btnG

<https://www.researchgate.net/search/publication?q=worldly%20knowledge>

<https://journalseeker.researchbib.com/view/issn/3060-4923>

1. Касимова, Д. Б. (2022). ОСНОВНЫЕ ПРИНЦИПЫ СОЗДАНИЯ ПРЕДМЕТНО-РАЗВИВАЮЩЕЙ СРЕДЫ. *International Academic Research Journal Impact Factor 7.4, 1(6)*, 244-248.
2. Bakhodirovna, K. D. (2022). Management of the Plot-Role-Playing Games of Preschool Children in the Conditions of Pre-School Education. *Spanish Journal of Society and Sustainability*, 3, 9-11.
3. Касимова, Д. Б. (2022, November). СОВРЕМЕННЫЙ ПОДХОД И НОВЕЙШИЕ ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ТРЕБОВАНИЯ К СЮЖЕТНО-РОЛЕВЫМ ИГРАМ ДОШКОЛЬНИКОВ. In *INTERNATIONAL SCIENTIFIC AND PRACTICAL CONFERENCE "THE TIME OF SCIENTIFIC PROGRESS"* (Vol. 1, No. 3, pp. 108-112).
4. Касимова, Д. Б. (2022). СПЕЦИФИЧЕСКИЕ МОТИВЫ, ПРИСУЩИЕ СЮЖЕТНО-РОЛЕВЫМ ИГРАМ ДОШКОЛЬНИКОВ. *Results of National Scientific Research International Journal, 1(6)*, 239-243.
5. Kasimova, D. B. (2023). DEVELOPMENT OF PROFESSIONAL COMPETENCE OF TEACHER OF PRESCHOOL EDUCATION ORGANIZATIONS. *Лучшие интеллектуальные исследования, 4(2)*, 46-48.